# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
TDIU
1931

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**

**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi o‘rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O‘zR Tabiat resurslari vaziri o‘rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Tabiat resurslari qo‘mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farxod,** O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
**Eshov Mansur Po‘latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori
**Karimov Norboy G‘aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo‘yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To‘lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning oʻrni ........ 7
**Dehqonov Burxon Rustamovich,** tayanch doktorant

Qishloq xoʻjaligida sugʻorish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yoʻllari ........ 11
**Mirjamilova Hulkar Nurali qizi,** assistent

Yangi Oʻzbekiston sharoitida oʻsimliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish ........ 15
**Alimov Murodkosim Achilovich,** mustaqil izlanuvchi

"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili ........ 20
**Umarov Faxriddin Umar oʻgʻli,** katta oʻqituvchi

Yoqilgʻi-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini taʼminlashda investitsion faoliyatning ahamiyati ........ 26
**Ergashev Muhibbek Aslam oʻgʻli,** mustaqil izlanuvchi

Togʻli hududlarda turizm biznesining rivojlanishi ........ 31
**Abduvakil Alimov Komil oʻgʻli,** tayanch doktorant

Taʼlim turizmining nazariy asoslari va Oʻzbekistondagi tendensiyalari ........ 38
**Maxmudova Nodira Oʻktamovna,** tayanch doktorant

Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari ........ 43
**Poʻlatov Maʼmurjon Murodjon oʻgʻli,** tayanch doktorant

Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari ........ 46
**Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich,** dotsent, i. f. n.

Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi ........ 51
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi,** dotsent, PhD

Turizmni rivojlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari ........ 57
**Yuldasheva Dilnoza Ulugʻbekovna,** mustaqil tadqiqotchi

Davlat tomonidan qishloq xoʻjaligini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ........ 62
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Jabborov Jahongir Abduvohid oʻgʻli,** magistrant

Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан ........ 66
**Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич**

Oʻzbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi ........ 73
**Usmonov Botir,** magistr

Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish ........ 78
**Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi,** tayanch doktorant

Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy koʻrsatkichlari tahlili ........ 82
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich,** PhD

Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds ........ 87
**Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev,** the applicant

Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies ........ 92
**Shakhzod Saydullaev,** PhD.

Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi ........ 101
**Raximjonov Kamronbek Ilxomjon oʻgʻli,** mustaqil tadqiqotchi

Oʻzbekistonda toʻlov tizimining raqamli transformatsiyasining oʻziga xos xususiyatlari ........ 105
**Otamurodov Shavkat Nusratillayevich,** i. f. d. (DSc); **Eshqulova Nasiba Normoʻminovna,** oʻqituvchi

Tijorat banki xizmatlarida taʼlim kreditining oʻrni va uni takomillashtirish masalalari ........ 110
**Eldor Uskanov,** mustaqil tadqiqotchi

Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish ........ 114
**Maxmudov Nosir Maxmudovich,** professor; **Elmurodov Faxriddin Farxodovich,** magistratura tinglovchisi

Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari ......... 120
**Ergashev Otamurod Toshtemirovich,** PhD
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar ......... 125
**Ermatov Musojalil Komilovich,** kafedrasi dotsenti v. b.; **Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich,** katta o'qituvchi
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach ......... 132
**Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich**
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization ......... 138
**Akobirova Nodira Najmiddin qizi,** asisstent
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities ......... 141
**Alimova Guzal Alisherovna,** PhD in economics, docent
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari ......... 146
**Jo'rayeva Sevara Zakirovna,** mustaqil izlanuvchi (PhD)
Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ......... 152
**Kamilova Iroda Xusnitdinovna,** PhD
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability ......... 156
**Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna,** Professor
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari ......... 163
**Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li,** mustaqil izlanuvchi
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri ......... 170
**Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li,** tayanch doktorant
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept ......... 175
**Otakulov Makhamadjon,** PhD
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari ......... 181
**Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi**
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida ......... 185
**Sadikova Ra'no Abdullayevna,** i. f. n., dots.
Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish ......... 188
**Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li,** mustaqil izlanuvchi
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni ......... 191
**Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li,** mustaqil izlanuvchi
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari ......... 196
**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li,** dekan o'rinbosari
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari ......... 203
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich,** dotsent; **Adilbekov Allayar Anvarbekovich,** magistrant
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni ......... 206
**Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li,** mustaqil izlanuvchisi
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях ......... 212
**Алиева Надирахон Абдумаликовна,** PhD. доц.; **Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи,** ст. 3-курса
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish ......... 217
**Z. G. Allaberganov,** kafedra dotsenti
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish ......... 222
**Asatullayev Xurshid Sunatullayevich,** i. f. n., professor
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari ......... 228
**Axmedova Yulduz Sunatullayevna,** kafedra o'qituvchisi
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari ......... 232
**Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna,** kafedra dotsenti

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish . 236
**Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich,** mustaqil izlanuvchi

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'rsatkichlari ... 242
**Berdiyev Akram O'ktamovich,** mustaqil izlanuvchi

Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi ... 253
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari ... 258
**Botirov Erkinjon Xayitovich,** kafedra dotsenti

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish ... 263
**G'aybullayev Odil Baxtiyarovich,** kafedra dotsenti v. b.

Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish ... 269
**Jubanova Bayramgul Aymuratovna,** PhD

Soliq ma'muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari ... 272
**Ibragimov Burburshoh Bohodir o'g'li,** i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)

Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish ... 278
**Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari ... 284
**Qurbonova Shaxrinoz,** tayanch doktorant

Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ... 288
**Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna,** kafedra doktoranti

Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari ... 292
**Mamirjon Jalollidinov,** mustaqil izlanuvchi

Финансирование акционерных общества через рынок капитала ... 297
**Муминов Шохжахон Суюнович,** ассистент кафедра

Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана ... 302
**Муятдинов Махмуд Жалелович,** независимый исследователь

Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны ... 307
**Назарова Гузал Баходировна**

Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari ... 312
**Nozima Abdullayeva,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ... 316
**Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich,** kafedra dotsenti v. b.

Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках ... 326
**Тажимуратов Умид Рузматович, Бахриев Иброхим Исометдинович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Жуманиёзов Эркин Худойберганович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Тажимуратов Рузмат Отажанович,** кандидат медицинских наук, **Тажимуратов Абдусами Умид угли,** ученик 10 класса

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili ... 333
**Temirov Abdulaziz Alimjanovich,** kafedra dotsenti, i. f. n.

Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан ... 339
**Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович,** DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD

Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ... 345
**Tosheva Ziroat Aliqul qizi**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari .......... 349
**To'rayeva Nafisa Odilovna,** mustaqil izlanuvchi

О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития .......... 355
**Турсун Мухитович Ахмедов,** и. ф. д., проф.; **Гавхар Рустамовна Хидирова,** докторант, и. ф. ф. д., доц.

Влияние корпоративного управления в зеленой экономике .......... 359
**Уринов Бобур Насиллоевич,** заведующий кафедрой

Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari .......... 366
**Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich,** kafedra dotsenti

Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari .......... 374
**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich,** DSc.

Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari .......... 382
**Xayriddinov Sh. B.,** mustaqil izlanuvchi

Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari .......... 385
**Xolov Nabijon Qaxramonovich,** PhD.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari .......... 391
**Xusanov Otabek Nishonovich,** PhD, mustaqil izlanuvchi

Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari .......... 396
**Elbusinova Umida Xamidullayevna,** kafedra dotsenti

Особенности методики проведения аудита затрат на производство .......... 401
**Хилола Икрамова Ровшан кизи,** базовый докторант

Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni .......... 407
**Bekdavlat Aliyev**

O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari .......... 412
**O'ktamova Nozima Narzulla qizi,** kafedra dotsenti

Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari .......... 416
**Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich,** mustaqil izlanuvchi

XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik .......... 420
**Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich,** falsafa fanlari doktori (PhD)

Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari .......... 424
**Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna**

Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития .......... 431
**Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна,** аспирант

Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari .......... 440
**Xolmamatov Farhodjon Kubayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari .......... 446
**Bobirjon Aktamov,** mustaqil tadqiqotchi

Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti .......... 454
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** t. f. n., mustaqil tadqiqotchi

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish .......... 459
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**



# BARQAROR IQTISODIY O‘SISHGA YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF OMILLARINING TA’SIRI

**Nabiyev Ulug‘bek Mirodiljon o‘g‘li**
Andijon mashinasozlik instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishning real holati tahlil qilingan, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun yalpi taklif, yalpi talab omillarini o‘stirish, investitsiya omilining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholash yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: yalpi talab, yalpi taklif, kapital qaytimi, mehnat unumdorligi, mehnatning kapital bilan ta’minlanganlik darajasi, yalpi omillar unumdorligi.

Abstract: The article analyzes the real situation of economic growth in Uzbekistan, provides proposals and recommendations for ensuring stable economic growth, growth of aggregate supply, factors of aggregate demand, and assessing the influence of the investment factor on economic growth.

Key words: aggregate demand, aggregate supply, return on capital, labor productivity, level of capital labor supply, total factor productivity.

Аннотация: В статье анализируется реальная ситуация экономического роста в Узбекистане, даются предложения и рекомендации по обеспечению стабильного экономического роста, роста совокупного предложения, факторов совокупного спроса, оценки влияния инвестиционного фактора на экономический рост.

Ключевые слова: совокупный спрос, совокупное предложение, доходность капитала, производительность труда, уровень капитального предложения труда, совокупная факторная производительность.

## KIRISH

Har qanday milliy iqtisodiyot notekis rivojlanadi va iqtisodiy faoliyatda ko‘tarilish va tushish kabi turli sikllarni boshdan kechiradi. Ushbu o‘zgarishlar umumiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sishiga taalluqlidir. Iqtisodiy o‘sish iqtisodiy siklning tiklanish bosqichi bilan bog‘liq bo‘lib, u iqtisodiyotning oldinga siljishini, uning taraqqiyoti va rivojlanishini anglatadi. Iqtisodiy o‘sishning asosiy ko‘rsatkichi YalMligini inobatga olgan holda, iqtisodiyot oldida turgan asosiy maqsad potensial YalMga erishish degan fikrni ilgari suramiz. Potensial YalMga erishishning asosiy sharti esa YalM tarkibidagi mehnat, kapital va yalpi omillar unumdorligi ko‘rsatkichlari hajmini ortishini ta’minlagan holda, yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasidagi muvozanat nuqtadan katta farq bilan og‘ishmaslik hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy o‘sish va unga omillar ta’siri G‘arb iqtisodchi olimlari ilmiy asarlarida keng bayon qilingan. Ayniqsa, A. Smit, D. Rikardo, R. Solou, J. Sey, E. Denison, Y. Domar, U. Jevons, Ch. Jones, N. Kaldor, J. Klark, F. Kydland, R. Lukas, U. Petti, E. Preskot, P. Romer, J. Stiglis, I. Tyunen, R. Xarrod, Y. Shumpeter kabi iqtisodchi olimlar ishlari ulardan keyingi iqtisodiy o‘sishni tahlil qilgan olimlar tadqiqotlarida ham keng qo‘llanilgan. Shuningdek, mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) miqyosida A. Semenov, Y. Yasin, A. Golub, S. Gubanov, A. Illarionov kabi olimlar ham iqtisodiy o‘sish va uning omillarini o‘rganishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. O‘zbekistonda S. Chepel, A. Eshtayev, Sh. Yuldashev, A. O‘lmasov, A. Qobilov, D. Qurbonova, S. G‘ulomov, N. Ashurova, I. Jahongirov, S. Amirjanova, Sh. Xamdamov, F. Qodirov kabi iqtisodchi olimlar o‘z ilmiy tadqiqotlarida iqtisodiy pasayishning oldini olish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash masalalarini o‘rganganlar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish uchun eng avvalo yalpi taklif va yalpi talab hajmlari o‘rtasidagi muvozanat ta’minlanishi zarur hisoblanadi. Iqtisodiyotda yalpi taklif va yalpi talab hajmlarini aniqlash uchun

Samuelson-Xiks tomonidan kiritilgan ekonometrik modeldan foydalanamiz. 2022-yil uchun hisob-kitoblarni amalga oshiramiz. Modelning umumiy ko‘rinishi quyidagiga teng:

$$y_t = C_y y_{t-1} + ϰ(y_{t-1} - y_{t-2}) + A_t.$$

Bizning fikrimizcha, modelning chap tomoni yalpi taklif, o‘ng tomoni yalpi talabni ifodalaydi. Formuladagi $y_t$ – hisobot davri (2022-yil)dagi YaIM hajmi (888 341,7 mlrd. so‘m), ya’ni yalpi taklif hajmi; $y_{t-1}$ -hisobot davridan avvalgi yil (2021-yil)dagi YaIM hajmi (738 425,2 mlrd. so‘m); $y_{t-2}$ – hisobot davridan ikki yil avvalgi (2020-yildagi) yaratilgan YaIM hajmi (605 514,9 mlrd. so‘m); $C_y$ – hisobot davridan avvalgi yil (2021 yil)gi iste’molning YaIM tarkibidagi ulushi (59,6%); ϰ – akselerator kattaligi (2022-yil uchun). Uni aniqlash uchun

$$\aleph = \frac{I_t}{(y_{t-1} - y_{t-2})} = \frac{266240 \text{ mlrd.so‘m}}{(738425{,}2 \text{ mlrd.so‘m} - 605514{,}9 \text{ mlrd.so‘m})} = 2.00316$$

modelidan foydalanamiz, bu yerda $I_t$ – hisobot davri (2022-yil)dagi investisiya hajmi (266 240 mlrd. so‘m); $A_t$ - hisobot davri (2022-yil)dagi avtonom talab hajmi (340 220,1 mlrd. so‘m). Berilgan ma’lumotlarni modelga qo‘yamiz.

888 341,7 = 0,596 * 738 425,2 + (738 425,2 – 605 514,9) + 340 220,1 = 1 046 798,2

Yakuniy natija ko‘rsatishicha, 2022-yilda yalpi taklif hajmi 888 341,7 mlrd. so‘mni, yalpi talab hajmi 1 046 798,2 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. Mazkur yilda iqtisodiy o‘sish kuzatilgan bo‘lsada, yalpi talab hajmi yalpi taklif hajmidan 158 456,5 mlrd. so‘mga yuqori bo‘lgan. Natijada yalpi taklif taqchilligi kuzatilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yalpi talab taqchilligi yoki yalpi taklif taqchilligiga sabab bo‘luvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri investitsiya hisoblanadi.

O‘zbekistonda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyaning hajmi yildan yilga o‘sib bormoqda (1-diagramma). Bu bevosita investitsiya samaradorligi bilan bog‘liq hisoblanadi. Shu o‘rinda, asosiy e’tibor investitsiya kirituvchi manbalarga qaratilishi zarur. 2022-yilni oladigan bo‘lsak, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiya ning hajmi 266 240.0 mlrd so‘mni tashkil etgan holda, uning 43,7% i chet el investitsiya lari va kreditlari hisobiga, 34% i korxonalar va aholining o‘z vositalari hisobiga, 12,5 % i banklarning kreditlari va qarz mablag‘lari hisobiga va 9,8% qismi davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar hisobiga shakllanganini kuzatamiz[1]. Bu ko‘rsatkichlarni ijobiy holat deb aytish mumkin, biroq bozor iqtisodiyoti sharoitida strategik bo‘lmagan sohalarni davlat budjeti hisobidan moliyalashtirishni yanada kamaytirish zarur deb hisoblaymiz.




1-diagramma: Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiya lar(mlrd. so‘m)[2]

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.
2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Shuningdek, investitsiya mablag'lari hisobidan moliyalashtirilayotgan sohalar tarkibini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. 2022-yilda 28,3% investitsiya ishlab chiqarish sanoatiga, 13,9% qurilishga, 7,4% qishloq xo'jaligiga, 8% investitsiyalar tog'-kon sanoatiga, 3% ta'limga, 2,9% sog'liqni saqlashga, 7,5% energetika sohasiga va 29% investitsiya mablag'lari boshqa sohalarga kiritilgan. Shu o'rinda, investitsiyalarning atigi 0.079% qismi ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga, 0.439% i boshqa intellektual mulk mahsulotlariga kiritilganligi e'tiborga molik[3]. Bu past ko'rsatkichlar bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Solishtirish uchun, 2021-yilda O'zbekistonda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga yo'naltirilgan xarajatlar YalMga nisbatan 1,4% ni tashkil etgan[4]. Bu sohaga yo'naltirilgan global investitsiyalar esa deyarli 1,7 trillion AQSh dollariga yetgan holda, Jahon YalMida 2.13% ulushni tashkil etgan. Shuningdek, BMTnig Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) doirasida mamlakatlar 2030-yilga kelib davlat va xususiy ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar uchun xarajatlarni, shuningdek, tadqiqotchilar sonini sezilarli darajada oshirish majburiyatini olganlar[5].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga kiritilgan investitsiyalar boshqa sohalarning investitsiya salohiyatini ham oshirishga xizmat qilishini inobatga olgan holda, davlat investitsiya siyosatiga qator o'zgartirishlar kiritishi zarur deb hisoblaymiz: O'zbekistonda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga yo'naltirilayotgan investitsiya hajmini oshirish uchun, birinchidan, davlat byudjetidan mazkur sohaga moliyaviy xarajatlarni keskin oshirish, ikkinchidan, xususiy ilmiy-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini rag'batlantirish, ularga soliq imtiyozi, subsidiyalar ko'rinishida keng imkoniyatlar yaratish, uchinchidan, mazkur sohada huquqiy bazani boyitish va soha subyektlari huquqlari kafolatini ta'minlash kabi tadbirlarni amalga oshirish zarur.

O'zbekiston iqtisodiyotiga 2010–2022-yillar oralig'ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi 16,17 barobarga, YalM hajmi esa 11,25 martaga ortgan (1-jadval). Tahlil natijasida ko'rinadiki, investitsiya hajmini avvalgi yilga nisbatan ortishi YalM o'sishidan 4,92 birlik yuqori. Ammo, biz tahlil natijalarini 2016-yil holatiga ko'radigan bo'lsak, 2010-yilga nisbatan investitsiya hajmi 3.11 barobarga, YalM hajmi esa 3.23 martaga ortganiga guvoh bo'lamiz. Endigi holatda ko'rinib turibdiki, investitsiya hajmining ortishi YalM o'sishidan ortda qolmoqda. Va afsuski, 2016–2021-yillar oralig'idagi musbat ko'rsatkichni ham ijobiy holat deb ayta olmaymiz. Bunga sabab qilib, mazkur yillar oralig'ida iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning asosiy ulushi tashqi qarz hisobiga to'g'ri kelishini keltirishimiz mumkin. Xususan, O'zbekistonda 2016–2019-yillar mobaynida 11 391,7 mln AQSh dollari miqdoridagi loyihalar tashqi qarz hisobiga moliyalashtirilgan[6]. Bu mamlakatda investitsiya samaradorligini o'stirish zarur ekanligini angalatadi. Investisya samaradorligini o'stirishning asosiy yo'llaridan biri bu foiz stavkasi hisoblanadi. Ma'lumki, barcha iqtisodiyot subyektlari faoliyati zamirida xarajatlarni minimallashtirish va bu orqali daromadlarni maksimallashtirish yotadi. Davlat nomidan ish yurituvchi va foiz stavkasi darajasini belgilovchi tashkilot bo'lmish Markaziy bank bu vaziyatda iqtisodiyotdagi pul massasini oshirishi zarur. Natijada, foiz stavkasi pastlaydi, iqtisodiyot subyektlarining xarajatlari kamayib qo'shimcha jamg'arma hosil bo'ladi va iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiya hajmi ortadi.

Investitsiya hajmini oshirishda davlat qo'llashi mumkin bo'lgan unsurlardan yana biri fiskal siyosatdir. Bunda davlat tomonidan soliq yuki kamaytiriladi. Oqibatda, iqtisodiyot subyektlarining qo'lida yana qo'shimcha foyda hosil bo'ladi va bu investitsiyani rag'batlantiradi. Davlat soliq yukini kamaytirish bilan birga, byudjet xarajatlarini qisqartirishga majbur bo'ladi, sababi O'zbekistonda byudjet daromadlari, asosan, soliqlar hisobiga shakllantiriladi. Bu vaziyatda, byudjet xarajatlarini qisqartirish vaqtinchalik chora vazifasini bajaradi, bunga sabab sifatida soliq to'lovchilarga soliq yuki kamaytirilgach, soliqlar miqdori yuqori bo'lgan paytda yashirib kelgan daromadlarini o'z ixtiyorlari bilan ochiqlashlarini keltirishimiz mumkin. Bu holatlar bevosita byudjetga tushumlarni oshiradi va investitsiyani rag'batlantiradi, umumiy holatda barqaror iqtisodiy o'sish kuzatiladi.

Investitsiya omili barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi va yalpi talab shakllanishida asosiy rol o'ynovchi ko'rsatkich hisoblanadi. Shuningdek, yalpi talab va yalpi taklifni bog'lanishini ifodalovchi akselerator ko'rsatkichi mavjud bo'lib, u orqali iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklif omillaridan qaysi biri taqchil ekanligini aniqlash va mavjud iqtisodiy o'sishni real holatini aniqlashga va buning natijasida turli xil qarorlar qabul qilishga imkon yaratiladi. Akselerator ko'rsatkichi YalM hajmining bir birlik o'zgarishi natijasida investitsiya hajmining necha birlik o'zgarishini aniqlashga yordam beradi.

Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasida 2010–2022-yillar oralig'ida nomutanosiblik kuzatilgan bo'lib, real akselerator ko'rsatkichi muvozanatni ta'minlovchi akselerator ko'rsatikichidan katta bo'lgan va natijada taklif taqchilligi yuzaga kelgan.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.
4 https://data.worldbank.org/indicator/GB. XPD. RSDV. GD. ZS
5 https://uis.unesco.org/apps/visualisations/research-and-development-spending/
6 https://cbu.uz/oz/statistics/bop/144130/

1-jadval: O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishning real holati ko‘rsatkichlari(mlrd. so‘m)[7]

| Yillar | Yalpi taklif | Yalpi talab | Asosiy kapitalga qilingan investitsiya hajmi | Taklif takchilligi | Real akselerator | Muvozanat akselerator |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2010 | 78 936,6 | 82 681,7 | 16 463,7 | 3 745 | 1,14 | 0,90 |
| 2011 | 103 232,6 | 104 925,6 | 19 500,0 | 1 693 | 1,12 | 1,04 |
| 2012 | 127 590,2 | 134 971,4 | 24 455,3 | 7 381 | 1,01 | 0,56 |
| 2013 | 153 311,3 | 165 147,0 | 30 490,1 | 11 836 | 1,25 | 0,90 |
| 2014 | 186 829,5 | 200 328,9 | 37 646,2 | 13 499 | 1,46 | 0,91 |
| 2015 | 221 350,9 | 240 734,0 | 44 810,4 | 19 383 | 1,34 | 0,85 |
| 2016 | 255 421,9 | 281 359,3 | 51 232,0 | 25 937 | 1,48 | 0,77 |
| 2017 | 317 476,4 | 345 657,5 | 72 155,2 | 28 181 | 2,12 | 1,04 |
| 2018 | 426 641,0 | 482 321,8 | 124 231,3 | 55 681 | 2,00 | 0,69 |
| 2019 | 532 712,5 | 666 916,1 | 195 927,3 | 134 204 | 1,79 | 0,39 |
| 2020 | 605 514,9 | 771 995,6 | 210 195,1 | 166 481 | 1,98 | 0,51 |
| 2021 | 738 425,2 | 898 720,7 | 239 552,6 | 160 295 | 3,29 | 1,05 |
| 2022 | 888 341,7 | 1 062 080,7 | 266 240 | 173 739 | 2,00 | 0,70 |

Yalpi talab taqchilligi odatda yangi mustaqillikka erishgan yoki o‘tish davridagi iqtisodiyotga xos holat hisoblanadi. Bunga asosiy sabab qilib iqtisodiyot uchun zaruriy bo‘lgan investitsiya hajmi pastligini keltirishimiz mumkin. Bunga misol qilib, O‘zbekiston iqtisodiyotining 1995–2002-yillardagi holatini keltirish mumkin. O‘zbekiston iqtisodiyotida 1995–1997, 1999–2000 va 2002-yillarda mamlakatdagi muvozanatsizlik, ya’ni yalpi taklif va yalpi talab o‘rtasidagi nomutanosiblikka yalpi talab taqchilligi sabab bo‘lgan. Ushbu davrda yalpi talab taqchilligi kuzatilgan yillarda haqiqiy akselerator ko‘rsatkichi muvozanat ta’minlanishi uchun zarur bo‘lgan akseleratordan kichik qiymatlarni ifodalagan. 2001-yilda real va muvozanat akseleratori deyarli bir xil ko‘rsatkichni namoyon etgan. Biroq, investitsiyaning YaIMdagi ulushi 2001-yildagi 26.82% dan 2002-yilda keskin qisqarib 19.31% ni tashkil etganligi, 2002-yilda yana talab taqchilligi kuzatilishiga sabab bo‘lgan. [8] Keyingi yillarda iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi ortib borgan va joriy davrgacha taklif taqchilligi kuzatilib kelinmoqda.

O‘zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlar turkumiga kirishini inobatga olsak, taklif taqchilligi kuzatilishi tabiiy holat hisoblanadi. Bunga sabab, davlat tomonidan olib borilayotgan ijobiy investitsiya siyosatidir. Asosiy kapitalga qilingan investitsiya hajmi oldingi yilga nisbatan 2018-yilda 1,72 va 2019-yilda 1,58 barobarga ortgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2018-yildagi 124 231,3 mlrd so‘mlik asosiy kapitalga qilingan investitsiyaning 49,7% i, 2019-yildagi 195 927,3 mlrd so‘mlik asosiy kapitalga qilingan investitsiya ning 42% i[9] qurilish-montaj ishlariga yo‘naltirilgan va natijada bu miqdorlarning yalpi taklifning ortishiga ta’siri katta bo‘lmagan va bu real va muvozanat akselerator ko‘rsatkichlari o‘rtasida keskin farq yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Keyingi yillarda ham asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning aksariyati qurilishga va yangi sohalarning rivojlanishiga yo‘naltirilganligini kuzatishimiz va bu sohalarda amalga oshirilgan loyihalar o‘zining ijobiy samarasini berishni boshlaganini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, xalqaro tajribadan ma’lumki, taklif taqchilligi kuzatilgan davrda, odatda, iqtisodiyot uchun zaruriy bo‘lgan investitsiya yetarli miqdorda, ba’zan keragidan ko‘p bo‘ladi, lekin iqtisodiyotda mavjud kapitalning aksariyati jismoniy yoki ma’naviy eskirgan, ishlab chiqarish omillari samaradorligi past, ishlab chiqarish texnologiyasi xalqaro darajadan ortda qolgan, mehnat unumdorligi va kapital qaytimi past bo‘ladi. O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror o‘sish holatida bo‘lsada, yuqoridagi kabi holatlar ayrim iqtisodiyot tarmoqlarida uchrab turibdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ishlab chiqarish omillari samaradorligini oshirish, yalpi talab va yalpi taklif mutanosibligini ta’minlash uchun davlat tomonidan quyidagilarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- iqtisodiyotga davlatning aralashuvini kamaytirib borish; tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni chuqurlashtirish;
- ishlab chiqarishni yangi darajaga olib chiqish va unda eng so‘nggi avloddagi texnika-texnologiyalardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

7 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.
8 Madrahimov U. M. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish omillarining samaradorligini oshirish: Dis. ... iqt. fan. nom.: AndMII, – T., 2008. – 52 b.
9 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- milliy iqtisodiyot tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes salmog'ini orttirish;
- tabiiy resurslarni yuqori texnologiya yordamida chuqur qayta ishlash orqali sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va import o'rnini bosgan holda eksportga yo'naltirish; hududlar eksport salohiyatini oshirib borish;
- ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga davlat xarajatlarni ko'paytirish va yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- import o'rnini bosuvchi tovarlar lokalizatsiyasini qo'llab-quvvatlash, bunda iste'mol tovarlariga alohida urg'u berish;
- monapoliyaga qarshi kurashgan holda samarali raqobat muhitini rivojlantirishda davom eitsh;
- yangi sohalarni chuqur o'zlashtirgan holda yangi mahsulotlarni sifatli va xalqaro raqobatga chidamli qilib ishlab chiqarish;
- muqobil energiya ishlab chiqarish sifatini yaxshilash, hajmlarni oshirish va oqilona foydalanish chora-tadbirlarini ko'rish.

O'zbekiston iqtisodiyotini 2010–2022-yillardagi holatini tahlil qilib, barqaror iqtisodiy o'sish davomiyligi uchun yalpi taklif omillari, xususan, kapital qaytimi, mehnat unumdorligi, mehnatning kapital bilan ta'minlanganlik darajasi, yalpi omillar unumdorligi, jamiyatda tadbirkorlik qobiliyatini rivojlanishi kabi bir qator omillarga alohida urg'u berish kerak ekanligini aytib o'tishimiz zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Madrahimov U. M. O'zbekistonda iqtisodiy o'sish omillarining samaradorligini oshirish: Dis. ... iqt. fan. nom.: AndMII, – T., 2008. – 52 b.
2. https://data. worldbank. org/indicator/GB. XPD. RSDV. GD. ZS.
3. https://uis. unesco. org/apps/visualisations/research-and-development-spending/
4. https://cbu. uz/oz/statistics/bop/144130/
5. https://stat. uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts–2

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.